

CHINGIZ AYTMATOVNING “ASRNI QARITGAN KUN” ROMANIDA OBRAZLAR TAHLILI

Sunnatova Dilfuza Sherzod qizi

TAFU O‘T 3-kurs talabasi

sunnatovadilfuza86@gmail.com

+998933503119

Ilmiy rahbar: Abdialimova Maxafuza Safarboy qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk qirg‘iz yozuvchisi Chingiz Aytmatovning ijodi, uning “Asrni qaritgan kun” romandagi voqealarning badiiy tahlili ko‘rib chiqiladi. Maqolada asarning asosiy g‘oyasi, voqealar rivoji va asardagi kulminatsiya jarayonlari haqida gapirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. “Asrga tatigulik kun”, Kazangap, Edigey Bo‘ron, Ona Bayit, Nayman ona Jo‘loman, Sario‘za

Abstract. In this article, the creativity of the great Kyrgyz writer Chingiz Aitmatov is discussed, specifically focusing on the artistic analysis of the events in his novel "The Day the Century Began." The article addresses the main idea of the work, the development of events, and the processes of culmination within the narrative. agi kulminatsiya jarayonlari haqida gapirib o‘tilgan.

Keywords, “A day worth a century”, Kazangap, Edigey Boron, Mother Bayit, Nayman Mother, Joloman, Sarioza.

O‘tgan asrning 60-yillarida Stalin siyosati qoralangach, adabiyotdagi vulgar sotsiologik qarashlarga bir qadar barham berildi. Insonga insondek qarash, uning jamiyatdagi o‘rni, mavqeyini anglash, hayot faqat g‘alabalardan iborat emasligini tushunish, inson tabiati xato va qusurlardan xoli emasligi, erkka tashnaligi, o‘y-xayollari, xatti-harakatlari hamisha ham risoladagidek bo‘lavermasligini badiiy talqin etishga

harakatlar boshlandi. Insonning inson degan nomga munosib bo'lish tamoyilini butun ijodi davomida targ'ib qilib, ajoyib asarlari bilan jahon badiiy tamaddunidan joy olgan va adabiyot rivojiga katta hissa qo'shgan ulkan yozuvchi Chingiz Aytmatov o'zining ilk romani "Asrni qaritgan kun" romani bilan adabiyot ixlosmandlarining qalbidan yanada chuqurroq joy olishga muvaffaq bo'ldi. Roman avval rus tilida yozilib ("Bo'ronli bekat", 1980),] "Noviy Mir" jurnalida rus tilida nashr etilgan. keyin qirg'iz tiliga tarjima qilingan. O'zbek tilida so'nggi marta Asil Rashidov tarjimasi bilan 2018-yilda Yoshlar nashriyot uyida 10000 nusxali qattiq muqovada nashr etilgan. Shundan so'ng adib ijodida roman pallasi boshlandi va "Qiyomat", "Kassandra tamg'asi", "Mangu qalliq" kabi romanlari dunyo yuzini ko'rdi. Romanda qalamga olingan inson va tabiat, jamiyat va inson, insoniy qadriyatlar va zamonaviy talqinlar o'zaro bog'lanib, bir-biriga chirmashib ketgan, janr jihatidan juda murakkab ushbu asar yozuvchiga ayrica bir muvaffaqiyat olib keladi.

Chingiz Aytmatov barcha asarlarida o'z usuli, uslub va tadbirlariga sodiq qoladi, ularda real hayotiy voqealar tasviri bilan turli-tuman rivoyat va afsonalar bir-biriga qo'shilib-chatishib ketadi. Uning qissalari va romanlarida qirg'izlar va boshqa turkiy xalqlarning afsonalaridan, folkloridan unumli foydalangani ham umumturkiy adabiyot uchun katta xizmatdir. (Chingiz Aytmatov "Bolaligim", 2017, 105-bet.)

Buyuk yozuvchi Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" asari xudosizlik va manqurtlik kabi insonlarning yomon illatlarini fosh etuvchi va bu asar o'sha davrdan beri millionlab kitobxonlarning qalbini zabtib kelmoqda. "Asrga tatigulik kun" romanida voqealar asosan Sario'zak cho'lida, Bo'ronli temir yo'l bekatida bo'lib o'tadi. Gap butun hayotini bekatda oddiy temiryo'lchi bo'lib o'tkazgan Kazangapning vafotidan so'ng dafn etish taraddutlari tasviri bilan boshlanib, romanning nihoyasida dafn musibat ustiga musibat bilan tugaydi. Shu orada Kazangap bilan Edigey Bo'ronning hayoti, ularga chambarchas bo'g'liq yoki bo'g'liq bo'lmagan holda Tinch okeani tepasida Sovet-Amerika "Paritet" kosmik kemasining parvoza bilan bog'liq hodisalar, Ona Bayit qabristoni, Nayman ona va uning baxtsiz farzandi Jo'loman, maktab muallimi Abutolib Quttiboyev, uning sadoqatli rafiqasi Zarifa va farzandlarining boshiga tushgan falokatlar hikoya qilinadi.

Asar Edigeyning azaliy do'sti Kazangapning o'limi haqida bilishi bilan boshlanadi. Kazangapning barcha qarindoshlari ham uning o'limi haqida bilishgan va ertasi kuni uni dafn qilish uchun yo'lga chiqishga qaror qilishgan edi. Otasining dafn etilishiga befarq bo'lgan Sobitjon, Kazangapni dafn etish uchun Sario'zak orqali OnaBayt qabristoniga borishga qaror qiladi. Marosim ertasi kuni ertalab bo'lib o'tadi. uning qadrdon do'sti Edigeyning eng oxirgi vasiyatini bajarishga qanday bo'lmasin do'stini Ona bayit qabristoniga qo'yishga harakat qiladi, u yerga borishni o'zi bo'lmaydi, va borganida qabristonda Kazangapni qo'yishga 2 metr joy topilmagani bu achinarli holat, do'sti uchun uning vasiyati uchun qanchadan qancha yo'l bosadi, yo'l yo'lakay faqat do'stini o'ylar o'tgan umrini hisobini chiqarardi. Boshqa tarafdin esa kosmetik kema uchirish payida edilar.

Asardagi voqealar shu darajada ochib berilganki yozuvchi nimani nazarda tutayotganini anglab olamiz. Asardagi manqurt tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, manqurtlik bu xuddi tirik o'liklikdir. Inson yashaydi lekin uning bu hayotdan hech qanday maqsadi bo'lmaydi. Asarda "Manqurt" atamasi ilk bor tilga olinadi. Manqurt o'zining kim ekanini, qaysi urug'-aymoqdan ekanini, ismini, bolalik kezlari, ota-onasining kimligini butunlay yoddan chiqargan bo'lib, o'zining odamligini ham unutib yuboradi.

Bu romanda shunday ikkita obraz borki ular bir-biri bilan o'xshash jihatlar namoyon qiladi. Bular: Sobitjon va Jo'lomon obrazlaridir. Bu ikkala obraz ham asarda manqurt sifatida tasvirlanadi. Jo'lomon shunday manqurtki unda faqat odamlarnikiga o'xshagan tashqi ko'rinish bor xolos ammo insoniylik fazilatlariga unga begona. Jo'lomon hatto uni dunyoga keltirgan onasini ham tanimaydi, Jo'lomonni jonidan ortiq ko'rgan otasini bilmaydi hatto o'zini ismini ham eslay olmaydi. Bundaylar manqurt deyiladi. Manqurtlar huddi ko'chadagi daydi hayvonlardek, faqat qorin g'ami bilan yashashadi. Sobitjonga kelsak u Jo'lomondek xotirasini yo'qotgan emas. U zamonaviy manqurt. U o'z tarixini bilmaydi, insoniy tuyg'ulardan mahrum, milliy-urf odatlarni mensimaydigan o'ta darajada xavfli manqurt. Sobitjon o'z otasining o'lganini eshitgandan keyin ham otasiga hurmati oshmaydi. Aksincha, u otasining janozasiga faqat qarzini uzish uchun boradi. Sobitjonning otasi Kazangapning vasiyatini oyoqosti qilib: "Otamni shuncha uzoqqa olib borib yuramizmi? Shunday katta cho'lda bitta odamga joy topiladi", (Chingiz Aytmatov "Asrni qaritgan kun", 2022, 34-35-bet)– degani uni Jo'lomondan ham yomonroq darajada xavfli

manqurt ekanini ko'rsatadi. Ezgu insoniy tuyg'ulardan mahrum, odamning ko'nglini his etmaydigan, bobolar qo'llagan udumlarni mensimaydigan, kechagi kunidan uzilgan, ammo o'zini ilg'or fikrli ziyoli hisoblaydigan Sobitjon manqurtning zamonaviy va xavfli nusxasi ekanligi ham juda ta'sirli ko'rsatilgan.

Asarda manqurt deya tasvirlagan Jo'lomon hech qachon o'z erkini talab qilmaydi. Unga oila ota-ona so'zlari begona. Uning fikri-zikri qorin to'yg'azish, shundan boshqa tashvishi yo'q. Insonning insonlik fazilati, yaratilganda birga yaratilib, o'lganda yana o'zi bilan birga ketadigan va boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan birdan bir noyob fazilati-xotirasi, aql-idroki bo'lsa-yu, uni tag-tomiri bilan yulib olsalar, axir, bu qanday yovuzlik, bedodlik?! Undan ko'ra tutqunning qalbini poralab, istagancha ziyon-zahmat yetkazib, o'limga mahkum etishlari yoki bir yo'la boshidan judo etishlari yuz chandon yaxshi emasmi? O'zlarining mudhish tarixida xiyonatkor sifatida shuhrat qozongan ko'chmanchi jungjanglar eng muqaddas narsa –insonning muqaddas insoniylik mohiyatiga ham chang soldilar.(Chingiz Aytmatov "Asrni qaritgan kun",2022,34-35-bet) Asarda jungjanglar orqali Chingiz Aytmatov kimlarni nazarda tutganligi yaqqol tasvirlangan. Asarda bu masalalar konkret odamlar taqdiri misolida badiiy ifoda etilgan.

Chingiz Aytmatov bu asarga X asrda yashab o'tgan arman yozuvchisi Grigor Narekatsining "Musibatnoma" kitobidan " Bul kitob jism-u fig'onimdir mening, Bul kalom jon-u jahonimdir mening" kabi satrlarini epigraf qilib olinishi ham bejiz emas. Chingiz Aytmatov uchun ham bu roman "jon-u jahonning o'zi edi" (Adabiyot,2006,382-bet.) Asarda chindan ham yozuvchining fig'onlari, qalbini o'rtagan dardlari, alamlari bayon etilgan. Insonlarni manqurt qilish jungjanglar asrga tushganlarni qilishardi. Ular asrga tushganlarning ko'p qismini qo'shni mamlakatlarga sotishardi. O'zlarida qolgan boshqa asrlarni juda ayovsiz,beshavqatlarsiz muomalada bo'lishardi.Ularni manqurtga aylantirishdagi holat juda achinarli edi.Avvalo sochlarini olardilar. Keyin esa, jungjanglarning chapdast qassoblari katta tuyani olib kelib so'yishar ekan va uning terisini shilishar ekan. Ular tuya terisini bo'laklarga ajratib olishib, uning orasidagi eng qalin terini ya'ni bo'yin terisini ajratib olishar ekan. Keyin esa bo'yin terisini bo'laklarga bo'lishib, hovuri chiqib turgan terini shu zahotiyuq hozirda suzuvchilar

kiyadigan qalpoqcha singari, tutqunning yangitdan qirilgan boshiga kiyg'izib qo'yishardi. Mana shu teri qoplash deyiladi. Bunday qiynoqqa duchor etilgan qul daxshatli qiynoqlarga bardosh qilolmay o'lib ketadi, yoki bo'lmasa, xotirasidan umrbod mahrum etilib, o'tmishini, hatto kimligini eslayolmaydigan qulga ya'ni manqurtga aylanib olar ekan. Bitta tuyaning bo'yin terisi 5-6 ta qalpoqchaga yetar ekan. Qalpoq qoplangan har bir qul qiynalganda boshini yerga tekkaza olmasligi uchun, bo'yniga yog'och bo'yinto'riq bog'lashardi. Shu alfozda ularning o'tinchli va quloqni qomatga keltiruvchi ovozlari eshitilib qolmasin uchun, ularni jazirama cho'llarga oyoq-qo'llari bog'liq holda eltib tashlashar edi. Bu qiynoqlar ko'p davom etmasdi, ammo bu qiynoqlarga dosh berib, tirik qoladiganlar kam topilardi. Asirlarni qo'riqlash uchun joylarda qalin qilib qo'riqchilar qo'yilar ekan. Bunday qullarning oilalari ularni qaytarib olishga yoki pul evaziga urinishmas ekan. Chunki ularning faqat jonsiz tanigina qaytar ekan. Ya'ni ularning xotiradan ajralgan tanigina qaytar ekan. Faqat birgina nayman validasi-rivoyatlarda Nayman ona nomi bilan mashhur bo'lib ketgan ayolgina o'z o'g'lining bu tahlit achchiq qismati bilan murosa qila olmadi. Sario'zak afsonasi shu haqida. Ona Bayit Onaizor makoni qabristonning nomi ham shundan kelib chiqqan. Dalaga tashlangan bunday qullardan ayrimlarigina bunday qiynoqqa dosh berib tirik qola olar edi va manqurtga aylanardi. Manqurtda qochish, ketish, isyon haqida fikrlash ham bo'lmasdi. U faqat sodiq itdek, xizmat qilardi va faqat o'z egasini tanirdi. Uning boshqalar bilan ishi bo'lmasdi. Uning fikri-zikri qornini to'ydirish bilan o'tardi. Manqurtlik shunday edi.

“Asrga tatigulik kun” romanida eng asosiy obrazlardan biri bu Nayman ona obrazi hisoblanadi. Chingiz Aytmatov bu obrazni mahorat bilan tasvirlagan. Nayman ona va o'g'lining bedarak yo'qolganidan keyin tushkunlikka tushib qoladi. o'g'lini hamma o'lgan deb o'ylasa ham Nayman onaning qalbida o'g'li tirikligiga ishonch bo'ladi. Nayman ona irodali va kuchli bo'lgani uchun ham o'g'lini qidirishga yo'lga chiqadi. Nayman ona yo'lga chiqayotganida jungjanglar uni tutib olishi haqda o'ylamaydi, u faqat o'g'lini manqurt holida bo'lsa ham o'z qishlog'iga olib kelish haqda o'ylaydi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, odatda manqurt qilinganlarning oilasidagilar farzandlaridan umidlarini uzardilar. Chunki manqurt bo'lgan insonning xotirasi qaytmas edi shunga yaqinlari deyarli unutishardi. Lekin Nayman ona farzandidan voz kechmaydi. Uni bu hayotga qaytarish

uchun qo'lidan kelganini qiladi. Mayli farzandi manqurt bo'lsin, mayli xotirasini yo'qotsin, mayli yaqinlarini tanimasin, mayli onasiga qarab boshqa ona demasin baribir ona o'z farzandidan kechmaydi. Nayman ona o'g'lining hayotini o'zinikidan azizroq deb biladi. Asar nomini eshitgan zahoti ko'z oldimda, birinchi navbatda Naymon ona obrazi va uning ayanchli taqdiri gavdalanadi. Ammo asar qahramonlari Edigey Bo'ron, Abutolib, Zarifa singari insonlarning taqdirini kuzata turib, asosiy asar mazmunini, maqsad – mohiyatini tashkil etuvchi, haqiqatni ko'ra olamiz. Urushda jang qilish uchun olib ketilgan, ammo yaroqsiz holga kelgach, uyiga yuborilgan va butun hayoti ag'dar-to'ntar bo'lib, o'z ona yeridan ketishga majbur bo'lgan Edigey Bo'ron, nemislarga asir tushib, inson zoti bardosh bera olmaydigan qiynoqlarga chidab, yurti uchun, tinchligi, ozodligi uchun partizanlar safida jang qilgan, ammo tinchli davri kelganda ayanchli o'lim topgan Abutolib singari shaxslar taqdiri asar voqelarini asosini tashkil etadi.

Har bir kitobxon o'zi uchun foydali bo'lgan fazilatlarni olishi mumkin bo'lgan obrazlardan biri Edigey hisoblanadi. Edigey "Asrga tatigulik kun" romanida oqko'ngil, milliy urf-odatlariga hurmati cheksiz, kamtar, sadoqatli do'st timsolida gavdalantirilgan. Edigey sal qo'rsroq va qiziqqonroq bo'lgani uchun xalq orasida uni "Edigey Bo'ron" deb atashardi. Edigey do'sti Kazangapga uning o'gli Sobitjondan ko'ra yaqinroq bo'ladi. Kazangapning janozasida ham Edigey Kazangapga Sobitjondan ko'ra yaqinroq ekanini ko'rinadi. Kazangapning vasiyatini Sobitjon bajargisi kelmaydi, ammo Edigey bu vasiyatni bajaradi. Bu hodisadan biz Edigeyning sadoqatli do'st ekanini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Chingiz Aytmatov barcha asarlarida bo'lgani kabi, mazkur asarlarida ham o'z usul-an'anasiga sodiq holda muayyan hayotiy voqealar tasvirini rivoyatlar fonida tasvirlagan, asarni o'qiganimizda, hayot turmush tasviri qayerdan boshlanadi-yu, , fantastika qayerda tugashini bilmay qolamiz. Adibning "Asrga tatigulik kun" romani manaviy-ruhiy poklanish pallasida insonga o'z-o'zini anglash darsidan sabog' beradi. Albatta bu, asarni o'qigan kishida Sobitjon, Jo'lamon singari obrazlarga nafrat, Edigey, Nayman Ona kabi qahramonlarga achinish tuyg'ularini yuzaga keladi.

Chingiz Aytmatovning buyuk yozuvchiligi shundaki, siyosatdan tamomila chetda turuvchi, siyosiy muammolar hal qilinadigan joylardan minglab chaqirim yiroqda umr

kechiruvchi kamtargina odam ham aslida siyosatning ta'siridan holi bo'lolmasligini Bo'ronli Edigey misolida juda ishonarli aks ettirgan. Edigey kechagi kunini unitmagan, bobolar amal qilgan yuksak udumlar asosida yashashga o'zida kuch topa oladigan chin insondir. Uning ezgu insoniy sifatlari qiyinchiliklarga qaramay marhum Kazangapning vasiyatini bajarishga o'zida kuch topa olgan. Kazangapni dafn etish jarayonida, marhum bilan vidolashuv onlarida, Allohga murojat qilgan o'rinlar tasvirida Edigey tabiatiga xos yuksak insoniy xususiyatlar namoyon bo'lgan. Xullas, bu roman odamning odamligini ta'minlab turadigan asosiy qadriyatlar haqida dard bilan bitilgan asardir.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot. Umum o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf uchun darslik-majmua.(2006) "Yangiyo'l Poligraph service" Toshkent
2. Chingiz Aytmatov (2022)"Asrni qaritgan kun".G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.Toshkent.34-35-bet
3. Chingiz Aytmatov (2017) "Bolaligim " qissa." Ijod-press" Toshkent